

ZAMONAVIY KUTUBXONALAR: AXBOROT MANBAI VA INNOVATION TARAQQIYOT

Xayrullayeva Dilshoda Qahramonovna,

Ingliz tili 3-fakultet talabasi, O‘zDJTU

Ilmiy maslahatchi: Mamatkulova Fotima Ashirkulovna,

Katta o‘qituvchi, O‘zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli asrda kitobxonlikning shakllanishi, an’anaviy va elektron kitoblarning jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy kutubxonalarning axborot va innovatsion markaz sifatida rivojlanishi, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Kitobning inson ma’naviyatiga ta’siri, uni targ‘ib qilishning zamonaviy usullari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, raqamli asr, kutubxona, axborot texnologiyalari, innovatsiya, mutolaa madaniyati.

Abstract. This article examines the formation of reading culture in the digital age, analyzing the role of both traditional and electronic books in society. It also highlights the development of modern libraries as information and innovation centers, as well as initiatives aimed at promoting reading habits. The impact of books on human spirituality and modern methods of promoting literacy are also discussed.

Key words: reading culture, digital age, library, information technology, innovation, reading habits.

Kirish. Bugungi axborot texnologiyalari asrida kutubxonalar nafaqat bilim maskani, balki innovatsion axborot markaziga aylanmoqda. Zamonaviy kutubxonalar jamiyat ma’naviy taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, aholining bilim va madaniyat darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Intellektual salohiyat manbai Ulug‘ adib Oybek: “Kitoblar inson tafakkurining javohirlarini yig‘ib, avlodlarga meros qilib qoldiradi”, degan edi(2005:3). Darhaqiqat, insoniyatning barcha bilim va tajribasi, tafakkur olami, avvalo, kitoblarda aks etadi. Kitob to‘plash, kutubxonalar tashkil etish jamiyatning marifatparvarligi darajasini belgilab beradi. Shu jihatdan olganda, kutubxonalarning inson manaviy ehtiyojini qondirish borasidagi o‘rni bebaho. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi qarori ijrosini taminlash maqsadida kitobxonlik madaniyatini oshirish, aholini keng va tizimli axborot bilan taminlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha belgilangan vazifalar yuzasidan viloyat axborot-kutubxona markazida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda(2017:1). Chunonchi, mazkur markazda ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam bilim olishi, xalqimizning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo‘lishi, har bir shaxsning

ijodiy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Kutubxona fondlari yangi turdagi elektron-axborot resurslari bilan boyitilmoqda. Kompyuter jamlanmalari, nusxa ko'chirish apparati, skaner singari axborot texnologiyalari bilan jihozlangan maxsus bo'limimiz o'quvchi-yoshlarning ta'lim dargohlarida olayotgan bilimlarini mustahkamlashda qo'shimcha manba vazifasini o'tamoqda. Talimning bunday interfaol usulining o'ziga xos tomoni shundaki, u o'quvchini tayyor bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay izlanishga, mustaqil fikrlashga chorlaydi. Qolaversa, kitob insonning eng yaqin do'sti, maslahatchisi hisoblanadi. Kitob – mangulikka yo'l olgan donolar xotirasiga qo'yilgan yodgorlik. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz yozganidek: "Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilm-u ma'rifatda", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol"(2011:2). Bunday purhikmat naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bugun vatanimizning jadal rivojlanayotgan bir davrida ajdodlarimiz va donolar fikrida o'z aksini topgan kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki yosh avlodni har tomonlama shakllanishida kitob mutolaasining o'rni beqiyosligini anglagan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori imzolandi. Bu qarorda aholining keng qatlamini kitob o'qishga jalb qilish, kitob o'qish va kitobxonlikni keng targ'ib qilish, voyaga yetayotgan farzandlarimizni bog'cha yoshidan boshlab kitobga mehrli qilib tarbiyalash, kitob mahsulotlarining mazmuniga e'tibor qaratish, ularni chop etish sifatini yaxshilash hamda chekka qishloq va ovullargacha borib yetishini ta'minlash, turli mazmundagi kitoblar bilan to'ldirilgan kitob do'konlarini ko'paytirish, kutubxonalar fondini boyitishga alohida e'tibor qaratish, chop etilayotgan kitoblarni aholi o'rtasida ommaviy axborot vositalari asosida kitob targ'iboti – reklamalarini tashkil qilish, qiziqish uyg'otish va ushbu jarayonda faol kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida turli tanlovlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratishini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Mazkur qaror kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'targanligi bilan izohlanadi. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala

hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiyan- Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan-Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqotu kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o'rganilishi, ular ilmiy-ma'rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir. Kitob mutolaasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q", – deya ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg'u bergan. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan mazkur farmoyish O'zbekiston ijtimoiy-madaniy muhitini yanada barqarorlashtirishga, yoshlarimizda kitobxonlik darajasini oshirishga, pirovard natijada xalqimiz turmush tarzini yanada farovon qilishga xizmat qiladi. Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Kitob o'qish barchamizning ma'naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Shuning uchun ham har tomonlama keng fikrlaydigan, ma'naviy yetuk, har qanday axborotlarni aql bilan tahlil qila oladigan, o'z fikrini bildirib, uni himoya qila oladigan, tengdoshlariga olgan axborotlarini tushuntira oladigan barkamol inson qilib tarbiyalashda kitobxonlikning ahamiyati beqiyosdir.

Kutubxonalar bugungi kunda nafaqat kitob mutolaasi markazi, balki raqamli axborot resurslari orqali jamiyatning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shuvchi innovatsion maydonga aylangan. Ular yosh avlodning ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, mustaqil fikrlash va izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajakda kutubxonalar ahamiyati yanada ortib, global axborot makonida muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori. 2017-yil 13-sentabr.
2. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-Qulub" – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2011.
3. Oybek. "Kitoblar inson tafakkurining javohirlarini yig'ib, avlodlarga meros qilib qoldiradi" – Adabiy tanqidiy maqolalar to'plami, Toshkent, 2005.